

HUSOMIDDIN BOYCHOR VA UNING SALTANAT KURASHLARIDAGI RO'LI

Sorabekov Sardor Ergash o'g'li

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti Tarix
yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

sardoregashovich0615@gmail.com

Annotatsiya: XIII asrning o'rtalarida Anadolu Saljuqiy davlati ichki siyosiy tanglik va mo'g'ul bosimi ostida bo'lib turgan bir davrda, xorazmiy amirlar orasida o'zining kuchli harbiy salohiyati va siyosiy ta'siri bilan ajralib turgan shaxs Husomiddin Boychor edi. Uning ismi Saljuqiylar davlati tarixida ayniqsa 1250–1260-yillar oralig'idagi voqealarda tez-tez tilga olinadi. Ushbu maqolada uning Saljuqiylar davlatidagi tutgan muhim o'rni va ro'li haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Saljuqiylar, Ilxoniyalar, Anadolu, fes, papaz, manevra.

Аннотация: В середине XIII века, когда Анатолийское Сельджукское государство находилось под внутренним политическим напряжением и монгольским давлением, среди хорезмийских эмиров был хусамиддин Бойчор, человек, который выделялся своим мощным военным потенциалом и политическим влиянием. Его имя часто упоминается в истории государства Сельджуков, особенно в событиях между 1250 и 1260 годами. В этой статье рассказывается о его важном месте и роли в государстве сельджуков.

Ключевые слова: сельджуки, Ильханиды, Анатолия, Фес, папаз, маневр.

Annotation: in the middle of the 13th century, during a period when the Saljuq state of Anadolu was under internal political tension and Mongol pressure, Husomiddin Boychor, a figure among the khwarezmian emirs characterized by his strong military potential and political influence. His name is frequently mentioned in the history of the Seljuk state, especially in events between the 1250s and 1260s. This article discusses his important role and role in the Seljuk state.

Keywords: Seljuqs, Ilkhanids, Anadolu, fes, papaz, maneuver.

Nihoyatda afsonalar bilan bezangan Saljuqiylarning ilk tarixida aytilishicha, Saljuq, to'g'risi Saljiq, To'qmoq o'g'li ham Bayg'uxonning yordamchisi Bug'uxonning qo'mondoni Suboshi qandaydir bir gunoh uchun turgan sahrolarini tashlab, chet mamlakatlarga ketishga majbur bo'ldilar. Saljuq qochganda biroz suvoriy, ming tuya va 50 ming bosh qo'y bilan ketgan. Sahroning janub tarafida Jand nomli joydan uzoqroqda joylashdi⁶.

⁶ Armiy Vamberi, Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi, Toshkent "INFO CAPITAL BOOKS" 2024. 122-123 betlar.

Saljuqiylar o‘z nomini sulola asoschisi bo‘lgan Saljuq ismli shaxsdan olganlar. Ular dastlab O‘rta Osiyoning qabilaviy ittifoqlaridan biri sifatida shakllangan va keyinchalik Eron, Iroq, Kichik Osiyo (hozirgi Turkiya), Suriya va boshqa hududlarni o‘z ichiga olgan kuchli imperiyani barpo etganlar.

Turkiya Saljuqiylar davlati esa Ilxoniylar⁷ tomonidan 1243-yili Ko‘sedag‘ jangida mag‘lubiyatga uchragach, mo‘g‘ullar hukmronligi ostiga tushishi natijasida boshlangan va Saljuqiylar davlati tezlik bilan qulash sari yuz tutgan davrda, Turkiya Saljuqiylari qo‘mondonlik tizimida muhim shaxs sifatida namoyon bo‘lgan va Xorazmlik kelib chiqishli Husameddin Baychar ushbu davrda siyosiy va harbiy tarixda muhim ro‘l o‘ynagan.

Husomiddin Boychor dastlab Jaloliddin Manguberdi bilan birga Alouddin Kayqubodga qarshi kurashish uchun Anadoluga kelgan, ammo mag‘lubiyatdan so‘ng Rumda qolgan⁸.

Husomiddin Bichar⁹ Harput hududiga egalik qilgan bo‘lsa, uning o‘g‘li Diyarbakir viloyatiga egalik qilgan. Husomiddin Boychor va uning o‘g‘li Bichar Bahodir bilan bir qatorda Sadridin Qutlushir, Zayneddin Ali Bahodir, Jamoliddin Xurosoniy kabi amirlar Anadolu saljuqiylarining ichki kurashlarida va ayniqsa, Sulton Izzeddin Keykavus II hukmronligi davrida muhim rol o‘ynagan.

XIII asrda Anadolu Saljuqiylari sultonlaridan hisoblangan Izziddin Keykavus bilan taxt uchun kurash olib borayotgan ukasi Rukneddin Kilish Arslan Kayserida lashkar to‘plar edi. Shu maqsadda Falakiddin Halil va Husomiddin Boychorga choparlar orqali farmon yuborgan, ular esa bu chaqiruvga “Eshitdik va itoat etdik” deya javob qaytarib, sulton Rukniddin qo‘shini safidan o‘rin olgan edilar¹⁰.

Husomiddin Boychor saltanat uchun kurash davomida markazda bo‘lgan va Falakiddin Halil bilan birga o‘z qo‘shinlaridan bir guruhni olib, Aksaroyga bir menzil masofada joylashgan Alouddin karvonsaroyigacha ot choptirib borishgan va u yerda turgan bir guruh bilan jang qilishgan. Ular karvonsaroy eshigini yoqib yuborgan, xalqning bir qismini o‘ldirishgan va bir qismining mol-mulkini olib, ularni ozod qilishgan.

Sulton Izzeddin, Sulton Rukniddinga elchi yuborib: "Senga Sivas, Malatya, Amid (Diyarbakir), Harput va ularga qarashli hududlar yetar", degan bo‘lsa-da, Husomiddin Boychor boshchiligidagi amirlar Kayseri va Kirshehrni ham talab qilishgan.

⁷ Ilxoniylar davlati — XIII asrda (1256–1353 yillar oralig‘ida) Eron, Iroq, Ozarbayjon, Kichik Osiyo (Anadolu) va Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida hukmronlik qilgan mo‘g‘ullar sulolasidir.

⁸ Muammar Gul, “Harezmi Türklerin Anadolu ve Yakınođu’daki Rollerı ve Tesırleri”. BELLETEN TURK TARİH KURUMU saytidan. 101-raqamli snoska.

⁹ Boychor ismi har xil manbalarda Bichar, Bayanchar, Beychar, Bishar kabi shakllarda keladi.

¹⁰ Ibn Bibi, “Al-Avomir al-Aloiya fil-Umur al-Aloiya”, II jild, 139-140-betlar."

Bu voqea Baychar va uning ittifoqchilari tomonidan raqib kuchlarga bosim o'tkazish va hududiy ustunlikni mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan deb taxmin qilinadi.

Bir kuni Husomiddin Boychor Saljuqiylar saroyiga kirayotganida, pardador (saroy navbatchisi) qo'lidagi tayoq bilan uning boshiga urib, boshidagi fesini tushirib yuborgan. Bundan juda jahli chiqqan Baychar: "Siz qanday qilib boshimdagi fes¹¹ni tushirgan bo'lsangiz, men ham bu majlisda o'tirgan ko'plab kishilarning boshini xuddi shunday tushiraman", degan va Baychuni Anadoluga chaqirgan.

Badriddin Ayniy ushbu voqeani bayon qilganidan so'ng, Husomiddin Boychorning Saljuqiylar davlat arboblari orasida ahamiyatsiz shaxs bo'lganini ham ta'kidlaydi. Biroq bu oxirgi fikr yuqorida aytilgan voqea bilan ziddlik hosil qiladi¹².

Husomiddin Boychor boshchiligidagi amirlar Kayseri va Kirshehrni ham talab qilishganlaridan so'ng ikki sulton 1254-yilda urushga kirishgan va g'alaba Izzeddin Keykavus tomonida bo'lgan¹³.

1261-yillarda Saljuq amiri Yavtash Harput hududida faoliyat yuritayotgan papaz¹⁴ harakatlarini to'xtatishga va undan soliq undirishga uringan edi. Biroq bu tashabbus Mo'g'ul elchilari aralashuvi bilan to'xtatilib, soliqni ham o'zlari yig'ib olganlar.

Oradan yillar o'tib, 1277-yilda esa Harput subashisi Husomiddin Boychor, Muiniddin Parvonaning yashirin ko'rsatmasi asosida harakat qilib, Marhasya Sergisini va u bilan birga bo'lgan o'ttizga yaqin papazni o'ldiradi. Shundan so'ng, u Mamluklarga boshpana izlab yo'lga chiqadi¹⁵.

Baychar ishtirok etgan yana bir muhim voqea 1275-yilda sodir bo'lgan al-Bira qal'asi (hozirgi Birechik) qamalidir. Abaka Xon buyruq bergan ushbu harbiy yurishda Abatay Noyan va Durbay boshchiligidagi 30 ming kishilik Mo'g'ul-Saljuqiy qo'shini Mamluklarga qarshi safar uyushtirgan, biroq qamal muvaffaqiyatsiz yakunlangan¹⁶. Qamal paytida Saljuqiy amiri Muineddin Sulaymon Parvona Sultan Baybars bilan yashirin aloqa o'rnatib, Mo'g'ullarni birgalikda yo'q qilish rejasini taklif qilgan. Baybars bu taklifni ma'qullagan bo'lsa-da, uning maktubini olib kelgan elchilar Mo'g'ul

¹¹ Fes - bu dumaloq shakldagi, odatda qizil rangda bo'ladigan, yuqorisida cho'qqisi yoki mayda to'r pardasi (charmidor) bo'lgan bosh kiyimdir. Fes ko'proq Turk dunyosida, ayniqsa Usmonlilar davrida keng tarqalgan va erkaklar tomonidan kiyilgan. U asosan matodan tikilgan bo'lib, oddiy va tantanali holatlar uchun alohida turlari bo'lgan.

¹² Badriddin Mahmud ibn Ahmad al-Ayniy, "Iqd al-Juman fi Tarikh Ahl az-Zaman", nashr: M. Muhammad Amin, 1-jild, Qohira, 1987, 153-bet.

¹³ Efe Durmush, TÜRKİYE SELÇUKLULARI DEVRİNDE HAREZMLİ BİR TÜRK EMİRİ: HÜSAMEDDİN BAYCAR, Fırat Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, Fırat University Journal of Social Science , Cilt: 19, Sayı: 1, Sayfa: 223-232, ELAZIĞ-2009

¹⁴ "Papaz" - bu xristian dinidagi ruhoniy shaxs bo'lib, cherkovda diniy marosimlarni olib boradi, ibodatlarni boshqaradi va jamoatga diniy xizmat qiladi. Ya'ni, u musulmonlardagi imomga o'xshash vazifani bajaradi, faqat nasroniylikda. Oddiy qilib aytganda, papaz - nasroniy (xristian) cherkovining diniy rahnamosi yoki din xodimi hisoblanadi.

¹⁵ Ibn Şeddad, Baypars Tarihi, 1948: 56-84 betlar.

¹⁶ Ibn Şeddad, Baypars Tarihi, 1948: 18-bet.

qo'shinlari tomonidan qo'lga olinib, Abatay Noyan huzuriga olib kelingan¹⁷. Parvona esa bu vaziyatdan chiqib ketish uchun hiyla ishlatib, elchilarni Ermeni qiroli tomonidan yuborilgan josuslar deb ko'rsatib, ularni qatl ettirishga erishgan.

Aksaroyiy rivoyatiga ko'ra, Husomiddin Boychor Mamluklar tomoniga yo'l olganida, Diyorbakr viloyatining bir yillik bojxona va boshqa soliqlarini to'plab, buni qo'shinga ketish bahonasida amalga oshirgan va kutilmaganda ochiqdan-ochiq qarshilik harakatini boshlagan. Husomiddin Boychorning o'g'li Bahodir esa Diyorbakr hududidagi qo'shin bilan birga to'la harbiy qurollar, bayroqlar, do'mbira va nog'ora sadolari ostida Shom tomon yo'lga chiqqan.

Shuningdek, Aksaroyiy Boychor haqida "U o'zi bo'lgan hududda birinchi bo'lib isyon chiqarishga sabab bo'lgan, qarshilik g'oyasini ilgari surgan va boshqa amirlarga yetakchilik qilgan", deya ta'kidlaydi. Bu fikrdan kelib chiqib, Husomiddin Boychor o'sha davrda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan nufuzli amir bo'lganini bilish mumkin¹⁸.

Husomiddin Boychor XIII asr Saljuqiy davlati siyosiy sahnasida nafaqat harbiy lider, balki kuchli siyosiy arbob sifatida faoliyat ko'rsatgan. U o'zining qat'iyati, siyosiy manevra¹⁹lari va harbiy harakatlari bilan bir davr tarixiga muhr qo'ygan amirlardan biri bo'lib, mo'g'ullar bosimi ostida zaiflashgan Saljuqiy davlati ichidagi kuchlar muvozanatiga ta'sir ko'rsatgan. Baychar boshchiligidagi xorazmiylar harakati, Anadolu hududida xorazmiylarning siyosiy-ijtimoiy ta'sirini kuchaytirishga ham xizmat qilgan.

Boychorlar sulolasining Diyorbakr va Harput atrofidagi hukmronlik davridan bugungi kungacha ayrim geografik nomlar saqlanib qolgan. Usmonliylar davriga oid hujjatlarda dastlab "Bacher Qazosi" sifatida tilga olingan bu hudud keyinchalik markaziy qishloq sifatida qayd etilgan bo'lib, vaqt o'tishi davomida Bachervan, Bachirvan, Bachir Umar, Bachuvan, Bachivan va Bichar kabi turlicha shakllarda nomlangan. Ushbu joy nomlarining saqlanib qolishi Boychorlar oilasining mintaqadagi siyosiy ta'siri va tarixiy merosi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Armeniy Vamberi, Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi, Toshkent "INFO CAPITAL BOOKS" 2024
2. Efe Durmush, TÜRKİYE SELÇUKLULARI DEVRİNDE HAREZMLİ BİR TÜRK EMİRİ: HÜSAMEDDİN BAYCAR, Fırat Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, Fırat University Journal of Social Science, ELAZIĞ-2009

¹⁷ İbn Şeddad, Baypars Tarihi, 1948: 59-60 betlar.

¹⁸ Aksarayî, Müsameretü'l Ahbar, 77-bet.

¹⁹ "Manevra" so'zi harbiy atama bo'lib, aslida qo'shinlarning jang yoki mashg'ulot vaqtida joylashuvi, harakati yoki strategik joy almashinuvi degan ma'noni bildiradi. Kengroq ma'noda esa, har qanday vaziyatda ustalik bilan, mohirona harakat qilish yoki vaziyatdan chiqib ketish uchun qilinadigan aqlli va rejalashtirilgan harakatlarga ham "manevra" deyiladi.

3. İbn Şeddad, Baybars Tarihi, Çev. M.Şerefüddin Yaltkaya, TTK Yay., İstanbul 1948.
4. İbn Bibi, “Al-Avomir al-Aloiya fil-Umur al-Aloiya”, II jild. Aksarayî, Müsameretü'l Ahbar
5. Badriddin Mahmud ibn Ahmad al-Ayniy, "Iqd al-Juman fi Tarikh Ahl az-Zaman", nashr: M. Muhammad Amin, 1-jild, Qohira, 1987
6. Muammar Gul, “Harezmlı Türklerin Anadolu ve Yakınođu'daki Rolleri ve Tesirleri”. BELLETEN TURK TARİH KURUMU saytidan